

# **OILALARDA AJRALISHLARGA SABAB BO‘LUVCHI PSIXOLOGIK OMILLAR**

**To‘lqinboyeva Mahliyo**

**Farg‘ona davlat universiteti talabasi**

**ANNOTATSIYA:** Nikohni bekor qilishayotgan oilalar soni, dunyo bo‘yicha nikohdan o‘tayotgan oilalar soni bilan taqqoslaganda, yildan yilga tenglashmoqda. Nikohning bekor qilishinishiga sabablar juda ko‘p, bularning ichida eng asosiy omillar rashq. Agarda oilalarning buzulib ketishiga sabab bo‘luvchi omillar ro‘yxatidan aynan rashqni olib tashlasak, deyarli to‘rtta oiladan uchtasi o‘z baxtli hayotini davom etishardi. Statistika bo‘yicha olingan ma’lumotlarga asosan, hiyonat qilishdan shubxa asosida 100 oiladan 75 ta oilaning buzulib ketishi bu juda ayanchli hol. Ushbu maqolada oilalarda ajralishlarga sabab bo‘luvchi omillar haqida ma’lumotlar berilgan.

**KALIT SO‘ZLAR:** Nikoh,oila, statistika, ajrim, baxt, farzand, solishtirish, xarakter, qo‘pollik,iqlim, er-xotin, aralashuvlar,.

**АННОТАЦИЯ:** Число семей, аннулирующих брак, из года в год равняется количеству семей, вступающих в брак во всем мире. Причин разоржения брака множество, главный из них – ревность. Если бы исключить ревность из списка факторов, вызывающих распад семьи, почти три из четырех семей продолжили бы свою счастливую жизнь. По статистике, 75 из 100 семей распадаются по подозрению в измене, что является очень печальной ситуацией. В данной статье представлена информация о факторах, вызывающих разводы в семьях.

**КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:** Брак, семья, статистика, развод, счастье, ребенок, сравнение, характер, грубость, климат, пара, вмешательства,

**ABSTRACT:** The number of families that are getting annulled is equaling year by year compared to the number of families that are getting married worldwide. There are many reasons for annulment of marriage, the main factor among them is

jealousy. If we removed jealousy from the list of factors that cause family breakdown, almost three out of four families would continue their happy lives. According to statistics, 75 out of 100 families break up on suspicion of treason, which is a very sad situation. This article provides information about the factors that cause divorce in families.

**KEY WORDS:** Marriage, family, statistics, divorce, happiness, child, comparison, character, rudeness, climate, couple, interventions,

## KIRISH

Ko‘pincha ajrashayotganlardan ajralish sababini so‘ralsa, ular qandaydir hamma uchun standart bo‘lib qolgan sabablarni ko‘rsatishga harakat qilishadi. Masalan, «xarakterimiz mos tushmadi», «o‘zga shaxsning aralashuvi», «qo‘pollik», «moddiy qiyinchilik», «ichkilikbozlikka berilish», «yashash sharoitining noqulayligi», «ota-onalarning noo‘rin aralashuvi» va h. k. Agar tahlil qilib ko‘radigan bo‘lsak, vaziyatga qarab, bunday ko‘rsatkichlar ba’zilarda sabab, ba’zilar uchun esa bahona vazifasini o‘taydi. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, oiladagi ma’naviy - ruhiy iqlim qanchalik mustahkam va er-x otinlar bir-birini qanchalik yaxshi tushunsalar bu «sabablar» (bahonalar) oilaning inqiroziga asosiy sabab bo‘la olmaydi. Yoshlar (er-x o tin ) o‘rtasidagi munosabat qanchalik noxush bo‘lsa bu bahonalar shunchalik kuchli va salbiy ta’sir ko‘rsatadi va bu holatlar ajralishlarning sababi bo‘lib qolishi mumkin.

O‘zbek oilalarida: «tur mush o‘rtog‘ining qo‘polligi», «tur mush o‘rtog‘iga nisbatan qo‘pol munosabatda bo‘lish», «tur mush o‘rtog‘ining ota-onasi va boshqa qarindoshlarining aralashuvi», «tur mush o‘rtoqlardan birining oilani umumiylasalalariga befarq qarashi» kabilar ko‘proq sabab bo‘lsa, Yevropa xalqlari oilalari uchun esa ajralish sabablari sifatida aksariyat hollarda, ichkilikbozlikka berilish, er-xotin xiyonati, xarakterlarning mos kelmasligi kabilar qayd etiladi. Ajralishlarning sabablarini aniqlash maqsadida o‘tkazilgan tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, o‘zbek oilalarida ajralishlarning motivlari sifatida ko‘rsatilgan ta’sirlardan asosiyлari, yuqorida qayd etilganidek, «tur mush o‘rtog‘ining qo‘polligi», «ota-onalar va

boshqa qarindoshlarning aralashuvi», «bir-biriga nisbatan befarqlik», «er-xotindan birining oilaviy masalalarga nisbatan befarqligi» kabilar ajralish sabablari sifatida ko‘rsatilgan.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Shunday qilib, ajralish muammosi hozirgi paytda jamiyatning eng dolzarb muammolaridan biri bo‘lib qolmoqda. Oilalarni ajralishlarining mavjudligi bizning respublikamizda ham keng jamoatchilik diqqatini o‘ziga qaratib, bu muammoning yechimini topish uchun kerakli choralarni ko‘rishga da’vat etmoqda. Chunki yuqorida qayd etilganidek, ajralishlar natijasida millionlab odamlar — eng avvalo, farzandlar, ayollar, qolaversa erkaklar va hatto ajralishganlarning yaqinlari ham «ma’naviy jarohat» oladilar. Bularning barchasi o‘zbek oilasida ajralish masalasiga jiddiyroq e’tibor berish lozimligini va uning oldini olish, salbiy asoratlarni kamaytirish chora-tadbirlarini ilmiy asoslangan holda ishlab chiqish zarurligini ko‘rsatadi. Yuqoridagilardan qanday xulosa chiqarmog‘imiz va shaxsiy hayotimizda nimalarga amal qilmog‘imiz, nimalarga e ’tibor bermog‘imiz lozim?

1. Turmush o‘rtoq tanlashda shoshilmang va adashmang. «Nikoh oldi omillari» va o‘zga mavzulardan tegishli xulosa chiqarib ish ko‘ring.
2. Hayot taqozosi bilan va tajribali kishilar maslahatlariga ko‘ra ajralishingiz muqarrar bo‘lsa, vaqt ni cho‘zib o‘tirmang va farzand ko‘rishdan saqlaning.
3. Ajralish, Sizga, turmush o‘rtog‘ingizga, ota-onalar ingizga, (agar bo‘lsa) farzandlaringizga imkoniboricha salbiy ta ’sir qilmasligi choralarini ko‘ring. Sizning ajralishingiz qarindoshlar orasiga sovuqchilik tushurmasligi, ular orasidagi munosabatlarning buzilishiga olib kelmasligi zarur.
4. Ajralishgan turmush o‘rtog‘ingiz bilan ijobiy munosabatni saqlab qolinishini ta’minlang. Bu avvalo sizning farzandlaringiz, ota-onangiz, qolaversa shaxsan o‘zingizning manfaatingiz ekanligini unutmang. Er-xotin ajralishi bolalari otasiz yoki onasiz o‘sishiga, ota va onadan ajralishiga olib kelmasligi kerak.


5. Ajralib ketgan eringiz yoki xotiningiz haqida farzandlaringizga salbiy ma'lumotlar berib, u haqida salbiy tasavvur shakllantirishdan saqlaning, chunki bunday tasavvurning shakllanishi bolangizning kelgusi hayotiga, shaxsiy oila munosabatlariga, qaynona-kelin munosabatlariga va farzand — ota-onas munosabatlariga salbiy ta'sir qiladi.


6. Ajralish eng so'nggi chora! U faqat sizning emas, balki yaqinlaringiz taqdiriga ham salbiy ta'sir ko'rsatishini unutmang. Shu sababli bu yuzasidan asossiz yengil qarorlar chiqarishdan saqlaning.

## NATIJALAR VA MUHOKAMA

Biriktiruvchi nizolarning yuzaga kelishiga asos bo'lgan muammolar va ularning hal qilinishi ham erving, ham xotinning, butun oilaning manfaatlariga qaratilgan bo'ladi. Agar ular hal etilsa, buning oqibatida oilaning umumiyl manfaatlariga oid muammolar o'z yechimini topadi. Bunday nizolarga oiladagi tartib, intizom, ozodalik, oila budgetini yuritish, saranjomlik, tejamkorlik, isrofgarchilikka yo'l qo'ymaslik, bola tarbiyasi va boshqa shu kabi toifadagi nizolar misol bo'la oladi. Ular asosan er-xotin o'rtasidagina yuzaga keladi, ularning ishtirokchilari ham faqat er-xotinlarning o'zlarigina hisoblanadilar.

Bunday nizolarning muvaffaqiyatli hal etilishida er-xotinlarning bir-birlarini yanada yaqinroq bilib, tushunib, bir-birlarining salbiy va ijobjiy xususiyatlarini o'rGANIB borish, bir-birlariga moslashish, muammolarni hal etish borasida hamkorlik





## XULOSA

Oilalarning buzulishiga sabab bo‘luvchi ko‘plab omillar ham mavjud. Psixologlar buni “ajoyib to‘rtlik” deb ham atashadi. Bular:

Bir xil mezonlar:

- Uydagи tartib va tozalik
- Musiqa, kino, adabiyot va teledasturlarga bolgan qizziqishlari, aniqroq qilib aytadigan bolsak didlari bir xil bolishligi
- Keyin umumiy qizziqishlari
- Oilada uy hayvonlari bolishi yoki bolmasligi

– Er xotinning ochiq suratli kinolarga bolgan munosabatlari

Agarda shu ro‘yxattan kamida ikkita bo‘limi bo‘yicha er-xotinlarning munosabatlari to‘g‘ri kelmasa, oilani saqlab qolish uchun imkoniyatlar juda kam. Oila bu muqaddas. Oilaning ichidagi muhit, uning tinchligi va albatta uning gullab yashnashi nafaqat erkak yoki ayolga bog‘liq. Oilaning faravon hayot kechirishiga aynan ikkala inson sababchi. Oilada eng kerakli deb sanaluvchi omillardan biri, bu er-xotining bir- birlariga bo‘lgan samimiy munosabatidir.

#### ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)

1. To‘lqinboyeva Mahliyo.”Baxt formulasi”. Journal of Healthcare and Life-Science Research Vol. 2, No. 3, 2023 ISSN:
2. Tulkinboeva Makhliyo.”Relations Between Husband and Wife in Child Rearing”. European Journal of Higher Education and Academic Advancement. Volume 1, Issue 2. 2023. 124-125 pages.
3. To‘lqinboyeva Mahliyo Valijon qizi.”OILAVIY NIZOLAR, AJRALISH VA UNING SABABLARI”. Journal of New Century Innovations, 28(1), 85-90.
4. To‘lqinboyeva Mahliyo.“Oilada farzand tarbiyasida solishtiruvlarning bo‘lishini farzandlarga psixologik ta’siri”. Eurasian journal of social sciences, philosophy and culture. Volume 3 Issue 5 Part 2 (2023).
5. To‘lqinboyeva Mahliyo.“Ota – onani bolaga nisbatan munosabatlarini aniqlash metodikasi tasnifi”. ЕКОНОМИКА И СОЦИУМ №6 (109) xalqaro ilmiy jurnal 2023y –B.
6. Tulkinboeva Makhliyo.” Psychological approach to choosing a spouse for young people who are about to start a family”. PERIODICA. Volume 14,January,2023 – B 8-11.
7. To‘lqinboyeva Mahliyo.“Bolalar xulqida tajovvuzkorlik xususiyatlari namoyon bo‘lishining ijtimoiy-psixologik sabablarini o‘rganish”. Ijodkor o‘qituvchi Multidisciplinary scientific online journal 2023y-25-son. -B.132-136

- 8.To‘lqinboyeva Mahliyo.“Ijtimoiy muhitning shaxs rivojlanishiga ta’siri”. PEDAGOGLAR International research journal –P. 220-225.
- 9.To‘lqinboyeva Mahliyo.“Texnik sohalarda oliy malakali kadrlarni tayyorlashda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish”. ERUS Educational Research in Universal Sciences – B.1281-1283.
- 10.Tulkinboeva Makhliyo.”Influence of husband and wife relationship on child upbringing”. Eurasian Journal of technology and innovation –B. 100-104.
- 11.To‘lqinboyeva Mahliyo.“Psixologiyada oila tizimlar nazariyasi”. Tadqiqotlar jahon ilmiy metodik jurnal – B.132-1343.
- 12.To‘lqinboyeva Mahliyo.“Oilaviy nizolarda qaynona va kelin o‘rtasidagi munosabatlar”. O‘zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali - B.299-302.
- 13.To‘lqinboyeva Mahliyo.“Nikohga ma’naviy tayyorgarlikning psixologik xususiyatlari”. Tadqiqotlar jahon ilmiy metodik jurnal – B.75-78.
- 14.To‘lqinboyeva Mahliyo.“Oiladagi muloqotning psixologik iqlimi bolaning o‘zini-o‘zi anglashini rivojlantirish omili sifatida”. “Ustozlar uchun” Ilmiy,badiiy va ommabop jurnal-B.25-31
- 15.To‘lqinboyeva Mahliyo.“Psixologik bilimlarning kasb olamida tutgan o‘rni”. Международный научно-образовательный электронный журнал “ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI ВЕКЕ” №22 (Том 6) ( Январь, 2022) 1003-1007-b
- 16.To‘lqinboyeva Mahliyo.“Shaxslararo munosabatlarda milliy qadriyatlarning psixologik talqini”. “Tadqiqotlar” jahon ilmiy metodik jurnal – B.79-83.
- 17.To‘lqinboyeva Mahliyo.“Oilaviy nizolarda qaynona va kelin o‘rtasidagi munosabatlar”. “Yosh mutaxassislar” ilmiy-amaliy jurnali –B.3-7.

18.To‘lqinboyeva Mahliyo.“Oilaviy munosabatlar barqarorligida psixologik ko‘nikmalarining o‘rni va ahamiyati”. “Лучшие интеллектуальные исследования” xalqaro ilmiy elektron jurnal.